



# NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI F A R M O Y I S H I

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2023 - yil 26 - yanvar

9-5-74-F/23

Nurota tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3953-sonli qarori ijrosi borasida 2023-yilda tuman hokimligi uchun ajratilgan byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan tovarlar xarid qilish hamda xizmatlar ko‘rsatishda eng arzon va sifatli mahsulotlar takliflarini o‘rgangan holda xarid qilinishini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25, 27-moddalariga asosan,

1. Tuman hokimligida davlat xaridlarini tanlash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga va tuman hokimligida qurilishga oid davlat xaridlarini tanlash bo‘yicha komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tanlov komissiyasiga tovarlar (xizmatlar) xarid qilishda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3953-sonli qarori talablaridan kelib chiqqan holda mahsulot yetkazib beruvchi (xizmat ko‘rsatuvchi) tashkilot yoki korxonalarining eng yaxshi takliflarini elektron shaklda o‘rgangan holda haqqoniy qaror chiqarish yuklatilsin.

3. Nurota tumani hokimligi bosh hisobchisi (A.Abduxalimov)ga tovarlar (xizmatlar) xarid qilishda e‘lon, aukcion savdo va konkursning Respublika Tovar-xom ashyo birjasi elektron portaliga joylashtirish, shartnomalarni savdo natijalari ichki tanlov komissiyasi qaroriga asosan tuzish, g‘aznachilik boshqarmasiga belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim qilish hamda g‘aznachilik ro‘yxatidan o‘tgandan so‘ng to‘lovlarni amalga oshirish yuklatilsin.

4. Ushbu farmoyishning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

**Tuman hokimi**



**A.Fayziyev**

Nurota tuman hokimining  
2023 yil 26 yanvardagi  
9-5-74-F/23-son farmoyishiga  
1-ilova

**Tuman hokimligi dadavlat xaridlarini tanlash bo'yicha**

**KOMISSIYA TARKIBI**

1. A.Bo'riyev – tuman hokimining birinchi o'rinbosari, komissiya raisi

**A'ZOLARI:**

2. U.Kenjayeov – tuman hokimi maslahatchisi

3. O.Mahmudov – tuman hokimligi devonxona mudiri

4. A.Abduxalimov – tuman hokimligi bosh hisobchisi

5. E.O'ralov - tuman hokimligi bosh yuriskonsulti

**Izoh:** komissiya raisi va a'zolari lavozimidan ozod etilgan taqdirda yangi tayinlangan xodim komissiya raisi va a'zosi sifatida faoliyatini davom ettiradi.

Nurota tuman hokimining  
2023 yil 26 yanvardagi  
9-5-74-F/23-son farmoyishiga  
2-ilova

**Tuman hokimligida qurilishga oid davlat xaridlarini tanlash bo'yicha**

**KOMISSIYA TARKIBI**

1. Sh.Rustamov – tuman hokimi o'rinbosari, komissiya raisi

**A'ZOLARI:**

2. A.Rahmatullayev– tuman hokimligi bosh mutaxassisi

3. O.Mahmudov – tuman hokimligi devonxona mudiri

4. A.Abduxalimov – tuman hokimligi bosh hisobchisi

5. E.O'ralov – tuman hokimligi bosh yuriskonsulti

**Izoh:** komissiya raisi va a'zolari lavozimidan ozod etilgan taqdirda yangi tayinlangan xodim komissiya raisi va a'zosi sifatida faoliyatini davom ettiradi.